

# **BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT**

*2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bora-sida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlash-tirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.


## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-dekabr oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



# Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

6

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **35,4** foizga oshdi




■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik,  
chovchilik, ovchilik va bu  
sohalarda xizmat ko'rsatish

■ O'rmon xo'jaligi

■ Baliq xo'jaligi




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

7



*Jami faoliyat  
ko'rsatayotgan sanoat  
korxonasi va  
tashkilotlarning  
umumiyligi o'tgan  
yilning shu davriga  
nisbatan **22,1** foizga  
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 4 381 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 122,1 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 122,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 95,0 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 107,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,1 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 100,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 156,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %) o'sishidir.

# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,1** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**11,1** foizga oshdi



## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**11,3** foizga oshdi




## Oilaviy korxonalar




**18,8** foizga oshdi



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



## Xususiy korxonalar



# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

9



# Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

10

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

**638**



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

**19**



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

**12**



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



**378**  
yashash bo'yicha  
xizmatlar



**1 918**  
Oziq-ovqat  
mahsulotlari va  
ichimliklar yetkazish  
bo'yicha xizmatlar

2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 2 296 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 124,4 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 128,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 83,5 %), yashash bo'yicha xizmatlarning- 106,2 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 16,5 %) o'sishidir.


## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni (1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 3 047 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 120 taga yoki 158,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 867 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 031 taga yoki 156,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 178 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 211 taga yoki 121,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 308 tani tashkil etib, ulardan 298 tasi yoki 96,7 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 24 taga yoki 108,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 35 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

14



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	81	91	156	274	298
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	0	1	8	17	26
Sanoat	60	61	83	120	124
Qurilish	2	4	7	29	29
Savdo	9	10	25	57	64
Tashish va saqlash	2	0	1	6	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	6	14	21	22
Axborot va aloqa	0	1	0	1	1
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1	2	4	6
Boshqa turlar	1	7	16	19	21

# Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


15

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>298</b>	<b>148</b>	<b>150</b>
<b>Buxoro shahar</b>	<b>149</b>	<b>65</b>	<b>86</b>
<b>Kogon shahar</b>	<b>14</b>	<b>10</b>	<b>4</b>
<b>tumanlar:</b>			
Olot	7	-	7
Buxoro	14	10	4
Vobkent	7	5	2
G'ijduvon	11	7	4
Kogon	25	17	8
Qorako'l	8	3	5
Qorovulbozor	9	4	5
Peshku	19	8	11
Romitan	12	5	7
Jondor	13	8	5
Shofirkon	10	6	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 149 ta (umumiyligi miqdorida ulushi 50,0 %), Kogon tumani 25 ta (8,4 %), Peshku tumani 19 tani (6,4 %), Kogon shahar 14 ta (5,1 %), Buxoro tumani 14 ta (4,7 %), hamda Jondor tumanlarida 13 tani (4,4 %) tashkil etadi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining  
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**  
(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

16



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

17




2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Buxoro shahri (29,4 %), G'ijduvon(10,8 %), Romitan(8,1%), Buxoro (7,7 %), Jondor (6,3 %), Peshku (6,2 %), Shofirkon(6,0 %), Kogon (5,4 %), Qorako'l (5,2 %), Vobkent (4,8 %), Kogon shahar (4,3 %), Olot (3,4 %), Qorovulbozor (2,2 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (21,0 %), G'ijduvon(10,1 %), Buxoro (8,9 %), Romitan (9,1 %), Peshku (6,9 %), Kogon (6,8 %), Jondor (6,6 %), Vobkent (6,4 %), Shofirkon (5,6 %), Qorako'l (5,6 %), Olot (4,5 %), Qorovulbozor (2,9 %) tumanlari va Kogon shahar (5,5 %), ulushiga tegishli.



# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

18



2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Buxoro shahri (30,0 %), G'ijduvon(10,4 %),Romitan (8,5 %), Buxoro (8,1 %),Jondor (6,5 %), Peshku (5,9 %),Shofirkon(5,7 %), Kogon (5,4 %),Vobkent (4,8 %), Qorako'l(4,9 %),Kogon shahar (4,2 %), Olot (3,0 %), Qorovulbozor (2,2 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2020-yilning yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar lists "RASMIY STATISTIKA" categories such as E'on qilish taqimi, Metama'lumotlar, Makroko'satkichilar, Milliy hisobiar, Narx va indekslar, Investitsiyalar, Qurilish, and Tashqi iqtisodiy faoliyat. The central search interface has a dropdown menu showing "Statistik klassifikatsiyalar" selected, along with other options like Xizmatlar ro'yxati, Elektron hisobot, KTYaDR ma'lumotlari, Usulby materiallar, Taqdim ettiladigan hisobotlar ro'yxati, and Korxona pasporti. The right sidebar lists "FOYDALI MA'LUMOTLAR" such as Aholini ro'yxtagiga olish-2022, Harakatlar strategiyasi, Press-relezzlar, Choraklik natijalar, Nashrlar – statistika haqida, Usulby materiallar, and Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Buxoro viloyati**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Tel.: (65) 223-83-20**